

MUHIBULLAYEV Saidmuhammadxon

Dovudxon o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islomshunoslik va Islom sivilizatsiyasini

o'rganish

ICESCO kafedrası tayanch doktoranti

E-mail: muhibullayevs@gmail.com

KAMOLIDDIN BAYOZIYNING IMON MASALASIGA OID QARASHLARI

ВЗГЛЯДЫ КАМОЛИДДИНА БАЯЗИ НА ВОПРОС О ВЕРЕ

THE VIEWS OF KAMOLIDDIN BAYAZI ON THE QUESTION OF FAITH

Annotatsiya: Maqolada Kamolidin Bayoziyning “Isharotul-marom” asarida kelgan aqidaviy masalalar, ular ichida tavhid, imon, islom, taqdir va imon amaldan emasligi, bu mavzularni yoritishda uning uslublari, bu uslublarni Abulmuntaho Mag'nisaviyning “fiqhul-akbar”ga yozgan sharhidagi imon va islom masalasini sharhlashdagi uslubiga qiyoslash, bu ikki olimning qaysi aqidaviy ta'limotda ekani, Bayoziy ko'proq aqliy dalillardan foydalangani, turli ulamolarning fikri orqali mavzuni yoritgani, Mag'nisaviy esa sodda shaklda, mantiqiylikga kirishmagani kabilar bahs qilinadi.

Kalit so'zlar: Imon, islom, tavhid, imonning rukni, “Fiqhul-akbar”, “fiqhul-absat”, Bayoziy, Mag'nisaviy, munofiqlar imoni, imonda tafavutli bo'lish.

Аннотация: В статье рассматриваются теологические вопросы, которые затрагиваются в «Ишаротул-Мароме» Камиддина Баязи, в том числе таухид, вера, ислам, судьба и его методы в освещении этих тем, сравнение этих методов со стилем Абулмунтахо Магисави в его комментариях к «Фикхул-Акбару» в комментариях к проблеме веры и ислама. Утверждается, что Баязид использовал больше ментальных аргументов, освещая тему через мысли различных ученых, в то время как Магнисави, в более простой форме, не обращается к логике.

Ключевые слова: вера, ислам, единобожие, столп веры, «фикху-л-акбар», «фикху-л-абсат», Баязи, Магнисави, вера лицемеров, разное верие.

Abstract: The subject is ideological issues in Kamolidin Bayazi's work “Isharotul-Marom”, among them, tawheed, faith, Islam, destiny and faith are not deeds, his methods in covering these subjects, comparing these styles with Abulmuntaho Magnisavi's style of commenting on the issue of faith and Islam in his commentary on “fiqhul-akbar”, What is the doctrine of these two scholars, Bayazi used more intellectual arguments, illuminating the topic through the opinions of various scholars, Magnisavi is argued in a simple form, as if it did not enter into logic.

Keywords: Faith, Islam, monotheism, pillar of faith, “Fiqhul-Akbar”, “Fiqhul-Absat”, Bayazi, Magnisavi, faith of hypocrites, differences in faith.

KIRISH

Istiqlol sharofati bilan serquyosh yurtimizda diniy va milliy qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Diyorimiz musulmonlarining asriy orzu-umidlari ro'yobga chiqa boshladi (va chiqmoqda). Asosiy qonunimizda etiqod erkinligi kafolatlandi. “Vijdon erkinligi to'g'risida”gi Qonunda e'tiqod qiluvchilarning haq va huquqlari belgilab berildi. Diniy tashkilotlar fuqororlik jamiyatining ajralmas tarkibiy qismi ekanligi e'trof etildi [3:3].

O'z milliy tarixi va madaniyatiga, dunyoda eng katta boylik bo'lgan intellektual va ma'naviy salohiyatga chuqur hurmat bilan yondashish, uni asrab-avaylash va boyitish, shu asosda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jahondagi har bir davlat va jamiyatning moddiy va ma'naviy taraqqiyotida, hech shubhasiz, hal qiluvchi o'rin egallaydi [9:142-143].

Ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fan va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi [12:154].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, dolzarb va muhim bo'lgan aqidaviy masala imon mavzusini Hanafiya va Moturidiya ta'limoti asosida yoritishni oldimizga maqsad qilib oldikki, islom yurtlarida mo'min-musulmonlarni kofirga chiqarib, ularni qonini halol sanab, obod yurtlarni xarob qilayotgan dinni yaxshi tushunmaydiganlarga dars bo'lsin va diniy ilmlarga qiziqayotganlarga ilm bo'lsin.

ASOSIY QISM

Usmonli xalifalik davrining etuk allomalaridan, haq yo'lida haqdan qaytmaydigan XVIII asrda yashagan Kamoliddin Bayoziy (1044/1634-1098/1687) o'zining Bayoziy Abu Hanifaning aqidaviy asarlari bo'lmish, "fiqhul-akbar", fiqhul-absat", "al-aalim val-mutaallim" va "vasiya"lardagi muhim aqidaviy mavzularni "Ishoratul-marom min-ibaratul-Imam Abi Hanifa" (Imom Abu Hanifaning iboralaridan iroda qilingan ishoralar) asarida sharhlab, ularga ishoralar berib ketadi.

"Isharotul-marom" asarining ilk bobini Abu Hanifa (r.a)ning "Fiqhul-akbar" (katta fiqh) va "Fiqhul-absat" (batafsil fiqh) asaridagi matnlarni sharhlashdan boshlab, mavzuni: «وبيان الإيمان الإجمالي» (Alloh taologa ijmoliy imonning bayoni) deb nomlaydi. Va Abu Hanifa o'z asarida nima uchun "Imon" masalasini birinchiga qo'yanini izohlab, shunday deydi: «قدمه في الفقه الأكبر والأبسط» (Abu Hanifa (r.a) "Fiqhul-akbar va val-absat"da "imon" mavzusini barcha e'tiqodning asli bo'lgani uchun birinchiga qo'ydi) [4: 17-18].

Bayoziy Abu Hanifadan o'rnak olib, avval imon mavzusiga oid matnni keltirib, unga sharh va ishora berishdan boshlaydi.

Umar (r.a)dan rivoyat qilinadi: **"Men Payg'ambar (s.a.v) ning yonlarida edim, shu payt bizning oldimizga sochini chiroyli o'rib olgan, salla o'ragan bir kishi keldi. Biz uni sahroviy kishilardan deb o'yladik. Odamlar elakasidan sekin-sekin o'tib, Payg'ambar (s.a.v)ning yonlariga borib o'tirdi. Ey Allohning rosuli! Imon nima?, deb so'radi. Payg'ambar (s.a.v): "Allohdan boshqa iloh yo'q ekaniga, Muhammad uning bandasi va rosuli ekaniga guvohlik berish va Allohning farishtalariga, kitoblariga, rosullariga, Allohga yo'liqish (haq ekaniga), oxirat kuniga va qadarning yaxshisi ham yomoni ham Alloh taolodan ekaniga imon keltirmog'ing", deb javob berdilar. Haligi kishi: "To'g'ri aytding", dedi [8: 106].**

Bayoziy yuqoridagilarni sharhlab, shunday deydi: **"Imon nima?"**, deb so'rashdan maqsad, imonning lafzi yoki hukmini sharhlashni so'rash emas, balki uning mohiyatini izohlash bo'lgan. Chunki, arab tilidagi «ما»ning asli, bir narsani mohiyatini so'rash uchun ishlatiladi. إيمان kalimasi

lug'otda bo'lib, mutloq tasdiqlashdir. Bu vaznida فاعل vaznida emas. Uning masdarida (pridmet, kelib chiqishi) فاعل kalimasi [5: 487] kelmaydi. فاعلning hamzasi ta'diyat (mf'ulni talabi uchun) uchun bo'lib, go'yo tasdiqlovchi boshqa kishiga o'zini tasdiqlovchi emasligidan omonda ekanini ko'rsatadi yoki u imonsizlardan emasligini isbotlab qo'yishdir. Bu kalima yana Allohni etirof qilish va bo'yinsunish ma'nosini ham o'z ichiga oladi. Bunga بالله" lafzidagi «ب»ishora qiladi.

Shariatda qisqacha qilib imon deganda, Payg'ambar olib kelgan narsani tasdiqlash va shunga iqrar bo'lishga aytiladi. Shuning uchun Payg'ambar (s.a.v) imonning mohiyatini bayon qilib, **"(U imon) guvohlik berish..."** ya'ni, iqrar va tasdiq, dedilar. Chunki, شهادة (guvohlik berish) kalimasi lug'otda, ko'z yoki qalb ko'zi bilan mushohada qilish orqali hosil bo'lgan ilmdan sodir bo'luvchi so'z hisoblanadi. Bu iqrar أو شهدت (guvohlik beraman, guvohman, inonaman, inondim, bilaman va bildim) kabi lafzlar bilan bo'ladimi farqi yo'q, hammasi iqrar sanaladi. Arab tilidan boshqa tillarda esa imonga xayri hohligi yoki imonga zid ishlarni tark qilishi bilan ham "shahodat" yuzaga kelaveradi. Bunga Payg'ambar (s.a.v)ning:

«أمرت أن أقاتل الناس حتى يقولوا: لا إله إلا الله»

"Men Allohdan boshqa iloh yo'q demaganlarga qarshi urush qilishga buyurildim" [9:149], deganlar. Shore' (Alloh yoki uning Payg'ambari Muhammad alayhissalom) tomonidan bandalik qilish **"guvohlik beraman"** degan lafz bilan bo'lishligi aniq sobit bo'lmagan.

Islom aslida, itoat va bo'yinsunishdir. Shu etibordan, imonning ajralmas bir bo'lagi hisoblanib, zohiriy amallarni bajarishga shu orqali o'tiladi. Amallarni bajarish esa, imon bilan jambarchas bog'liq bo'lib, imonsiz amal bo'lmaydi. Kim gunoh qilsa, Islomga nisbatan bo'ladi, ya'ni imonga emas balki zohiran itoat qilmagan hisoblanadi. Imon botin bo'lsa, Islom zohirga bog'liq demakdir.

Imom Abu Hanifa (r.a) "Fiqhul-akbar" asarlarida: **"Bilinki, tavhid va e'tiqod qilish to'g'ri bo'ladigan narsaning asli, Allohga, oxirat kuniga, (Allohning) farishtalariga, kitoblariga, rosullariga, o'lgandan keyin qayta tirilishga qadarning yaxshi va yomoni ham va hayotda bo'ladigan narsalar hammasi Allohdan ekaniga**

imon keltirdim, deb aytish zarur ekanidadir”, dedilar.

Bayoziy ushbu matn orqali (imonga oid) bir necha masalalarga ishora berib ketadilar. Ular quyidagilar:

Birinchi: imon bu – (til bilan) iqror va (qalb bilan) tasdiq ekani, bunga yuqoridagi “shahodat keltirish” masalasida ham dalolat qiluvchi bayon o’tdi.

Ikkinchi: tavhidni shu ikkisiga (iqror va tasdiq) bog’liqligi va bu ikkisini imonning ikki rukni ekaniga ishora bor.

Uchinchi: biror kishi garchi maxfiy bo’lsada (tili bilan) iqror qilishga imkoni bo’lsayu, iqror qilmasa, tasdiq qilish ro’yabga chiqsada mo’min bo’lmasligi, ya’ni qalbidagi imonni tasdiqlaydiyu ammo tili bilan imkon bo’la turib ham iqror qilmaydi, mana shu odam ham mo’min bo’la olmaydi. Chunki, tili bilan aytishlikka mone bo’lmasada aytmadi, iqror qilishdan bo’yintovladi [4:18].

To’rtinchi: bu ilm (aqida ilmi) tavhid ilmi ham deyilishiga ishoralar bor.

Beshinchi: e’tiqoddagi asl narsa bu – yaralish va qayta tirilishga imon keltirish ekani, qolganlari shu ikkisiga imon kelitirishga bog’liq ekani (ya’ni oxirat kuniga va qayta tirilishga imon keltirmasa, imonsiz sanladi). Shuning uchun, oxirat kunini birinchi keltirildi.

Oltinchi: Alloh taoloning:
ولكن البر من آمن بالله واليوم الآخر والملائكة والكتاب
والنبيين

“Lekin yaxshilik, Allohga, oxirat kuniga, farishtalariga, kitobiga va paygambarlariga imon keltirgan kishidadir..”, [11:Baqra surasi 117] degan kalomini (hukm sifatida) olishdir.

Ettinchi: payg’ambarlarga kitoblarni tushushi farishta zotining vositasi orqali bo’lishligi. Shuning uchun, farishtalarni kitoblardan avval keltirdi. Bu degani ba’zilar o’ylaganidek, imon keltrishda biri-biridan farqli, biriga kuchli, boshqasiga kuchsizroq imon keltirish degani emas. Chunki,, imon keltirishda tafovut bo’lish mazhabga xilof ishdur. Afzalini birinchi keltirish ham emas, chunki Allohning kalomi farishtalardan afzalligiga barcha ittifoq qilgan narsadir.

Sakkizinchi: bu kalima shahodat kalimasidanda tafsilot chihatdan aniqroq va bayon chihatdan mukammalroqdir. Chunki, bunda barcha imon

keltirish kerak bo’lgan narsalar batafsil keltirilgan, shahodat kalimasi esa qisqa va lo’nda qilib keltirilgan.

Bayoziy “fiqhul-akbar”ning bosh qismida kelgan “tavhid” masalasi orqali imonni bayon qilishga harakat qilgan. Ammo aynan “fiqhul-akbar”dagi “imon” mavzusini keltirmagan. Chunki, mavzu boshida imon masalaiga oydinlik kiritgani uchun, yana qaytadan keltirib o’tirmagan. Shu bilan birga Bayoziyning maqsadi aynan “fiqhul-akbar”ning to’liq sharhlash bo’lmagan. Balki, o’zi asos va muhim deb bilgan joylarni tanlab olgan.

Quyida Bayoziyning sharhiga qiyoslash uchun “fiqhul-akbar”ning mo’tabar sharhlaridan bo’lgan Abulmuntaho Mag’nisaviy (vaf. 1000/1592)ning sharhini keltirib, ularni qiyosiy o’rganamiz.

Biz mavzumizda “fiqhul-akbar”dagi “imon” masalasi bahsini qiyosiy tahlil qilish uchun tanlab olgandik. Va bu tahlil “isharotul-marom” asari asosida bo’lishini ham aytib o’tgan edik.

“Isharotul-marom” va “sharhi fiqhul-akbar” asarlari o’rtasidagi tahlil aynan bir matnni sharhidan olinmagan bo’lsada, yuqorida aytganimizdek, Bayoziy “tavhid” masalasi bayoni kelgan matn orqali imon mavzusini yoritgan bo’lsa, Mag’nisaviy esa aynan “imon” haqidagi matn orqali imon mavzusini bayon qilgan, “tavhid” haqidagi matnda esa shunchaki tavhidning istilohiy ma’nolarni keltirib o’tagn uni yoritishda imon masalasiga kirishmagan.

Shuning uchun bizning qiyosiy tahlil bu ikki olimning “imon” masalasini qanday uslubda yoritishi, unda nimalarga ko’proq etibor qaratishi kabi bahsni tahlil qilish bo’ladi.

Mag’nisaviy sharhni quyidagicha boshlaydi: (Abu Hanifa (r.a) aytadi): **“Imon”** lug’otda tasdiqlash bo’lib, xabar beruvchining xabarini qalban qabul qilishdir. Turkiy ma’nosi, “Inonmoq”dir. Shar’iy istilohda esa Allohni yakkaligi, Uning sherigi yo’qligi, O’zining zotiy va feliy sifatleri bilan sifatlanganligi, Muhammad Allohning rasuli ya’ni uni kitob va shari’at bilan yuborgan nabiysi ekanligiga til bilan **“iqror”** qalb bilan **“tasdiqlash”**dir.

Abulmuntaho Mag’nisaviy (r.a) sharhda davom etib, shunday deydi: iqrorning o’zi imon bo’lmaydi. Chunki, iqrorning o’zi imon bo’ladigan bo’lsa, barcha munofiqlar ham mo’minlar

safiga kirib qoladilar. Shuningdek, ma'rifatning (shunchaki Allohni ilm tarzida bilib qo'yishning) o'zi ham imon bo'lmaydi. Chunki, u (ma'rifat) agar imon bo'lsa, ahli kitoblarning barchasi mo'min bo'lib qoladilar. Zero, Alloh taolo munofiqlar haqqiga shunday degan:

والله يشهد إن المنافقين لكاذبون

“Va Alloh guvohlik berurki, albatta, munofiqlar yolg'ochidirlar” [11:Munofiqun 1].

Ahli kitoblar haqqida esa:

الذين آتيناهم الكتاب يعرفونه كما يعرفون أبناءهم الذين

خسروا أنفسهم فهم لا يؤمنون

“Biz kitob berganlar uni o'z farzandlarini tanigandek tanirlar. Ular o'zlariga ziyon qilganlardir, ana o'shalar imon keltirmaslar”, [11:An'om 20] deb marhamat qilgan.

Kim Muhammad (sollallohu alayhi vasallam) ning ummati bo'lish istasa, bas, tili bilan “Laa ilaha illallohu Muhammadur rosululloh” Allohdan boshqa iloh yo'q, Muhammad Allohning elchisi, deb qalbi uning (ushbu so'zining) ma'nosini tasdiqlasa, garchi bu kishi farz (Alloh farz qilgan) va harom (harom ish va narsalarni) qilingan narsalarni bilmasa ham.u mo'mindir.

So'ngra, u odamga senga bir kecha-kunduzda besh vaqt namoz farz qilingan, deyilsa, u esa ularning farzligini tasdiqlab, uni qabul qilsa, demak u o'z imonida sobitdir. Agar ularni farzligini inkor qilib, qabul qilmasa, demak Allohga, kitob va sunnat, ummat ijmosi hamda fuqaholarning qiyosidan iborat qat'iy dalillar bilan sobit bo'lgan, (Allohning besh vaqt namozdan tashqari) boshqa farz va harom qilinganlariga kofir bo'libdi.

“Osmon va er ahlining imoni mo'man bih (unga imon keltirilgan narsa) etiboridan ziyoda ham bo'lmaydi, noqis ham bo'lmaydi. Yaqiyn (aniq, ozgina ham shubha bo'lmaslik) va tasdiqlash jihatidan ziyoda va noqis bo'ladi”. Ya'ni, farishtayu inson va jinlarni imoni dunyo va oxiratda imon keltirilgan narsa etiboridan ziyoda va noqis bo'lmaydi. Chunki, kimki Allohga va Allohning huzuridan (Allohning kitoblari, amrlari va qaytariqlari) kelgan narsaga imon keltirdim, Allohning elchisiga va Allohning elchisi huzuridan kelgan (hadis va sunnatga) narsaga imon keltirdim desa, demak o'ziga imon keltirish vojib bo'lgan narsaga imon keltirib, mo'min bo'libdi. Agar kimki, unga imon keltirish zarur bo'lgan ishning

ayrimiga imon keltirsa, masalan: Allohga, Uning farishtalariga, kitoblariga, rasullariga imon keltirib, oxirat kuniga imon keltirmasa, demak u kofirdir. Yoki Allohga va Uning rasullariga imon keltirsayu ammo ulardan boshqasiga imon keltirmasa, u ham kofir sanaladi. Bas, shunday ekan, imon keltirish kerak bo'lgan narslarning ba'zisiga imon keltirgan va ularning barchasiga (to'liq) kofir bo'lgan kishilarni haqiqiy kofirligida hech qanday farq yo'q.

“Mo'minlar imonda tengdirlar”. Yuqorida aytilganidek, imon keltirish lozim bo'lgan narsaga imon keltirishda barobardirlar. **“Tavhid”** ya'ni (Allohni) Ilohligida, Robligida, Xoliq ekanligida, azaliy va qadimligida, barcha narsalarni O'zi qoim qiluvchi qoyyumligi va behojatligida Unga sherikni nafiyl qilish, yo'q deb bilishdir. Kimiki, shulardan ba'zisida sherikni nafiyl qilib, ba'zisida sherikni isbot qilsa, bas, u kishi mushrik bo'lib, muvahhid (Allohni yakka deb biluvchi) emas. Shu jihatdan tavhid ziyoda ham noqis ham bo'lmaydi. (Ya'ni, nimani Allohga isbot qilish kerak bo'lsa, uni isbot qilish, nimani nafiyl qilish kerak bo'lsa, uni nafiyl qilishda barobardir).

Ammo taqlid qilish va dalil izlash tarafidan esa ziyoda va nuqsonli bo'ladi. Aqliy dalillar bilan dalil izlovchining tavidhi bilan mukoshafat va mushohadalarga hamda ilohiy ma'rifat va diniy ilmlarga chuqur etib borgan orifning tavidhi teng emas. Shuningdek, shu jihatdan ularning imoni ham barobar emas. Abu Hanifa (r.a) aytganidek **“bir-biridan afzal”**, ya'ni tafavutli, nimada tafavutli desa unga **“amallarda”**, deb aytdilar. Ya'ni zohiriy va botiniy toatlarda bir-biridan farq qiladi.

Bu kalom bilan, solih amal imondan bir bo'lak emasligiga dalolat qiladi. Chunki, amal ziyoda va noqis bo'ladi. Ba'zi insonlar besh vaqt namozni to'liq ado qilsa, ba'zisi unday qilmaydi. Zero, o'sha to'liq qilmaganning ham namozi namoz, to'liq ado qilganning ham namozi namoz, botil namoz emas. Kim agar ramazon ro'zasini to'liq tutsa, uning ro'zasi to'g'ri ro'za, islomi ham, imoni ham va dini ham sahihdir. Agar kimki yarmini tutsa, u ham to'g'ri ro'za, botil emas. (Ya'ni, sen yarmini tutding, seni ro'zang ro'za emas, yoki sen ikki vaqt namoz o'qiding, seni namozing namozing namoz emas, deyilmaydi). Bunga boshqa farz va nafl amallarni qiyoslab ko'ring, barchasi shu mezonda bo'ladi.

Imon unday emas. Chunki, (yuqorida aytilganidek) imon keltirish lozim bo'lgan narsaning ayrimiga imon keltirgan kishining imoni sahih imon emas, balki botildir. Bu, huddi ro'zani tutib, kunning yarmiga borib ochib yuborgan kishining ro'zasiga o'xshaydi. (Shuning uchun bunday ro'za ham, botildir).

“Islom bu taslim va Allohning amrlariga bo'yisunishdir”. “Sihoh” [5:1220] da keladiki, taslim hukmga to'liq rozi bo'lish, bo'yisunish esa itoatkorlik va xushu' (kamtarlik, tavoze') hamda egilish va tavoze'dir. Islomning ma'nosi esa Allohning farz va haromlaridan iborat hukmlariga rozi bo'lish, ya'ni Allohning hukmiga ba'zisi farz, ba'zisi halol va ba'zisi haromligi bilan ularga hech bir e'tiroz va yomon sanashsiz rozi bo'lishdir.

“Lug'ot jihatdan imon va islom farqlidir”. Chunki, imon so'zi lug'otda tasdiqdan iborat. Alloh taolo O'z kalomida (Yusuf alayhissalomning akalari tilidan):

وما أنت بمؤمن لنا ولو كنا صادقين

“Agar rostgo'y bo'lsak ham, sen bizga ishonmassan”, – dedilar”, [11:Yusuf 17] marhamat qilgan. Ya'ni, bizni tasdiqlovchi emassan, deganlar.

Islom esa taslimdan iborat. Tasdiqning xos o'rni bo'lib, u qalbdir, til esa uning tarjimonidir. Ammo taslim qalbga ham tilga ham va boshqa a'zolarga ham tegishli bo'lib, umumiydir. (Ya'ni, taslim uchun faqat birini o'zi etarli emas). Bu esa islom lug'ot etiboridan umumiyroq hisoblanib, shunga ko'ra munofiqlar ham musulmonlardan sanaladi, shar'iy etibordan esa unday emasligidan ishoradir. Ammo ular lug'oviy va shar'iy jihatdan ham mo'min emaslar. (chunki, imon qalbga xos).

Alloh taolo ular haqida:

قالت الاعراب أمانا قل لم تؤمنوا ولكن قولوا أسلمنا

“A'robiylar: “Imon keltirdik”, deyishdi. Sen: “Imon keltirganingiz yo'q, lekin, bo'yinsundik, denglar”, [11:Hujurot 14] deb marhamat qilgan.

E'tirof til bilan bo'lgani uchun u lug'otda islom bo'lib, imon emas, chunki qalb tasdig'i topilmadi.

Abu Hanifa (r.a) yana: **“Lekin islomsiz imon bo'lmaydi”**, dedilar. Shari'at hukmida islomsiz imon topilmaydi. Chunki, imon Allohning uluhiyatini Uning sifat va ismlaridek iqrar qilish va tasdiqlashdir. Kimki iqrar bo'lib, tasdiq ham qilsa, demak unda taslim va Allohning amrini farzligini

hamda Uning shari'at va ahkomlarini qabul qilish topilibdi. **“Imonsiz islom topilmaydi”**. Chunki,, islom bu taslim va Allohning amrlariga bo'yinsunish bo'lib, bu faqatgina tasdiq va iqrordan keyin topiladi. Shari'at o'lehoviga ko'ra mo'min, muslim emas yoki muslim, mo'min emas deyish aqlga sig'maydigan ish. Bu ikki ismning sinonimligi va ma'noning bittaligidan hisoblanadi. **“Bu ikkisi huddi bel bilan qoringa o'xshaydi”**. Ya'ni, imon va islom bir-biridan ajramaydiagn darajada jipsdir. Huddi bel qorindan qorin esa beldan ajramagani kabi.

“Din imon va islom hamda shari'atning barchasi qo'yilgan ismdir”. Ya'ni, ba'zan “din” lafzi ishlatilib, undan imon, ba'zan islom, ayrim hollarda esa Muhammad alayhissalomning shari'atlari iroda qilinadi. Gohida esa “din” deganda, Muso alayhissalomning, gohida Iso alayhissalomning yoki boshqa payg'ambarlarning shari'atlari nazarda tutiladi [2:82–87].

Imom Abu Hanifa (r.a) shu joyga kelganda imon masalasidan Allohni qanday tanish kerakligi haqidagi bahsga o'tib ketadilar va biz bahs qilayotgan imon va islom mavzusi tugaydi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan shu aniq bo'ldiki, Mag'nisaviy (r.a) matnni to'g'ridan-to'g'ri sharhlab ketganlar. Sharhlashda asosan o'z fikrlari va eng muhimi har bir so'zlariga oyatdan dalil keltirib ketganlar. Sharhda aqliy dalillar ya'ni mantiqiylikni uncha kuzatmaymiz. Albatta bu so'zimiz aynan imon va islom mavzusiga tegishlidir. Sharh juda tushunarli, sodda va o'z o'rnida ilmiy hamdir.

Bayoziy (r.a)ning imon masalasini sharhlashda ulamolar fikrlari, ishoaralar va mantiqiylik ko'p uchraydi. Shu bilan birga murakkabligi ham bor. Aftidan bunday uslubda masalani yoritish sharhga chuqur kirishilganidan va masalani batafsilroq bayon qilishlikdan bo'lsa kerak. Xulosa shuki, ikki olimning ham e'tiqodi bir xil bo'lgan, buni biz sharh mobaynidan aniq bilib oldik. Ikki olim ham Hanafiy va Moturidiy aqidasiini yoritgan. Va bunda ikki xil uslubdan foydalangan.

Yana shuni aytishimiz mumkinki, imon va tavhid masalasi har zamon va har muhitda dolzarb va diqqatli mavzulardan bo'lgan. Shular

ichida imonning ziyoda va kam bo'lishi haqidagi masala bo'lib, ulamolarimiz o'rtasida ko'pgina tortishuvlarga sabab bo'lgan masaladir. Lekin ahli sunna va jamoa ulamolarining tortishuvlari mohiyatda emas, suratsidir. Ba'zilar to'g'ridan-to'g'ri "imon ziyoda va kam bo'ladi", desalar, ba'zilar "imonning asli bir, ammo unga taalluqli ishlar, amallar ziyoda yoki kam bo'ladi", deyilar [10: 83].

Bayoziy va Mag'nisaviylar bu masalada Abu Hanifa (r.a)ning ta'limlari ya'ni imon ziyoda va kam bo'lishi quvvat jihatdan, imon keltiriladigan narsalarda ziyoda va kamlik bo'lmasligiga yuradilar.

Xullas imon masalasiga doir qarashlar turlicha ekani, bular ichida eng mo'tadili hanafiya va moturidiya aqidasiining tutgan yo'li ekani yaqqol ko'rinib turibdi. Ayniqsa, bandalarning qilgan yaxshi-yomon ishlari ham taqdir ishiga bog'liq ekani va bunda ham insonga aql bergani aytib o'tilgan. Ahli sunna va jamoadan boshqa yo'ldagilar yaxshilik Allohdan yomonlik bandaning o'zini ishidan, uning ishiga Alloh tomonidan hech qanday taqdir qilish yo'q deyishlari aytib o'tildi. Bayoziy bularga ham ham aqliy ham naqliy ishoralarni keltirib o'tdilar. Bayoziyning ishoralari ba'zan mantiqiy dalillarga ham o'tib ketib, yosh o'quvchiga anglash qeyinroq bo'lishini ham ko'rdik. Demak, Bayoziyning asarini yaxshi tushunish uchun mantiq va arab tilini yaxshi bilish kerak bo'lar ekan, degan xulosaga keldik.

Mag'nisaviy masalani yoritishda engillikni tanlaganlar. Bu esa yosh o'quvchiga masalani tushunishga osonlik beradi. Shu e'tibordan bu asar islom muaassasalarida darslik shaklida o'tiladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Qur'oni karim. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2020.
2. Abulmuntaho Mag'nisaviy. Sharhi fiqhul-akbar. – Istanbul: Dor as-siroj, 2021.
3. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. – Toshkent: Movarounnahr, 2016.
4. Bayoziy. Isharotul-marom. – Bayrut.: Dor al-kutubul-ilmia, 2007. – 296 b.
5. Ismoil ibn Hammod Javhariy Abu Nasr. As-sihoh. – Qohira: Dor al-hadis, 2007. – 1287 b.
6. Ibn Hishom Ansoriy. Sharhi qotrun-nada va ballus-soda. – Bayrut: Muaassasa ar-risala an-nashirun, 2019.
7. Mulla Aliy Qoriy. Minah ar-rovzatul-azhar fi sharhil-fiqhul-akbar. – Bayrut: Dor al-bisharotul-islamiya, 1998. – 328 b.
8. Mulla Aliy Qoriy. Mirqotul-mafaih. T.1. – Bayrut.: Dor al-kutub al-ilmia, 2019.
9. Hasanbaev O', Xatamov J. O'zbekiston respublikasida vijdon erkinligini ta'minlashning huquqiy asoslari. – Toshkent: Movarounnahr, 2020.
10. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. T. 1. – Toshkent: Hilol-nashr, 2021.
11. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. T. 1,2,6. – Toshkent: Hilol-nashr, 2018.